

**BOJXONA NAZORATIDA XAVFLARNI BOSHQARISH TIZIMINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH (JAHON SAVDO TASHKILOTINING
SAVDONI OSONLASHTIRISH BITIMI TALABLARI ASOSIDA)**

Eshboyev Elyorbek Shuhrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti tyutori

elyorjoneshboyev@gmail.com

Tel: +998 88 185 25 10

Jahon savdosi hajmining barqaror o'sishi sharoitida bojxona organlari oldida ikki tomonlama vazifa turibdi: bir tomondan, qonuniy savdo oqimini tezlashtirish va soddalashtirish, ikkinchi tomondan, boj va soliqlarning to'liq undirilishini ta'minlash, kontrabanda, kontrafakt hamda taqiqlangan tovarlar aylanishining oldini olish. Barcha tovar partiyalarini yalpi tekshirish tashqi savdoga salbiy ta'sir ko'rsatishi sababli, zamonaviy bojxona nazorati tanlab tekshirish tamoyiliga, ya'ni xavflarni boshqarish tizimiga (XBT) asoslanadi. Shu bois XBTni huquqiy tartibga solishning xalqaro standartlarga muvofiqligi dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Xavflarni boshqarishning xalqaro-huquqiy asosini, birinchi navbatda, Jahon savdo tashkilotining Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitimi (Trade Facilitation Agreement, TFA) tashkil etadi. Ushbu bitim 2017-yil 22-fevralda kuchga kirgan bo'lib, uning 7-moddasi tovarlarni chiqarish va rasmiylashtirishga bag'ishlangan. Xususan, 7.4-band a'zo davlatlardan bojxona nazorati uchun xavflarni boshqarish tizimini joriy etishni, nazoratni yuqori darajadagi xavfli partiyalarga jamlashni va past xavfli partiyalarni tezkor chiqarishni, shuningdek, boshqaruvni tegishli tanlash mezonlariga (Uyg'unlashtirilgan tizim kodi, tovar tavsifi, kelib chiqish va jo'natish mamlakati, tovar qiymati, ishtirokchining qonunga rioya tarixi, transport turi) asoslashni talab qiladi. Bunda tizim o'zboshimchalik bilan kamsitishga yoki xalqaro savdoning yashirin cheklovlariga olib kelmasligi shart.

TFA talablari Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va

uyg'unlashtirish to'g'risidagi qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi (RKC) me'yorlari bilan uzviy bog'liq. Konvensiyaning Umumiy ilovasidagi 6-bobga ko'ra bojxona nazoratini amalga oshirishda xavflarni boshqarishdan foydalanish, tekshiriladigan shaxs, tovar va transport vositalarini xavf tahlili orqali aniqlash standart sifatida belgilangan. Jahon bojxona tashkilotining (WCO) xavflarni boshqarish bo'yicha kompendiumi esa ushbu me'yorlarni amaliyotga tatbiq etishning uslubiy asosini beradi. Shu tariqa, milliy XBT xalqaro shartnoma va standartlar tizimiga integratsiyalashgan holda shakllantirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida xavflarni boshqarish tizimining huquqiy asosi Bojxona kodeksi hamda soha qonunosti hujjatlari bilan mustahkamlangan. Milliy amaliyotda XBTni joriy etishni shartli ravishda tayyorgarlik (2007–2016), rivojlanish (2016–2023), takomillashtirish (2023–2025) va kompleks rivojlanish (2025-yildan) bosqichlariga ajratish mumkin bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos huquqiy, tashkiliy va axborot ta'minoti bilan farqlanadi. Hozirda tizimda 300 dan ortiq xavflarni baholash algoritmlari (xavf profillari) va 500 dan ortiq podalgoritmlar amal qilib, har bir bojxona yuk deklaratsiyasi bo'yicha xavfni avtomatik baholash imkonini beradi. Milliy yagona darcha tizimining ishga tushirilishi idoralararo integratsiyani ta'minlab, xavflarni boshqarish samaradorligini oshirmoqda va TFAning yagona darcha bo'yicha 10.4-modda talablariga muvofiqlikni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, amaldagi huquqiy tartibga solishda bir qator masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Avvalo, avtomatlashtirilgan xavf profillari va algoritmlari asosida qabul qilinadigan qarorlarning huquqiy maqomi, ularga nisbatan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining shikoyat qilish kafolatlari aniq belgilanishi zarur. Ikkinchidan, idoralararo va davlatlararo axborot almashinuvining huquqiy mexanizmlari, shu jumladan ma'lumotlarni himoya qilish rejimi takomillashtirilishi talab etiladi. Uchinchidan, halol ishtirokchilar uchun soddalashtirishlarni ko'zda tutuvchi vakolatli iqtisodiy operator (AEO) instituti va chiqarishdan keyingi audit mexanizmlari milliy qonunchilikda TFAning 7.5 va 7.7-moddalari ruhida yanada mustahkamlanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, bojxona nazoratida xavflarni boshqarish tizimini huquqiy tartibga solish JST Savdoni osonlashtirish bitimi va qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi talablariga muvofiqlashtirilishi savdoni osonlashtirish hamda nazorat samaradorligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Bu esa milliy qonunchilikda xavf mezonlarini, avtomatlashtirilgan qarorlarning huquqiy asoslarini, idoralararo hamkorlik va AEO institutini aniq mustahkamlashni, xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich implementatsiya qilishni taqozo etadi. Natijada O'zbekistonning xalqaro savdo tizimidagi ishonchli hamkor sifatidagi mavqei mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Agreement on Trade Facilitation (WTO). Geneva: World Trade Organization, 2017. URL: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/tfa-nov14_e.htm
2. International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (Revised Kyoto Convention), General Annex, Chapter 6. Brussels: WCO.
3. WCO Customs Risk Management Compendium. Brussels: World Customs Organization, 2011.
4. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. – Toshkent, 2016.
5. Shermamatova M.Sh. Jahon savdo tashkiloti savdoni yengillashtirish bitimini implementatsiya qilish metodologiyasi // O'zbekiston bojxona axborotnomasi. – 2025. – № 1.